

FARG‘ONA DAVLAT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/30.12.2019.Fil.05.02 RAQAMLI ILMIY KENGASH

FARG‘ONA DAVLAT UNIVERSITETI

DADAJONOV AVAZBEK RAXMATJON O‘G‘LI

**MUHOKAMA NUTQINING FUNKSIONAL-USLUBIY
XUSUSIYATLARI**

10.00.01 – O‘zbek tili

**FILOLOGIYA fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Farg‘ona – 2025

**Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
avtoreferati mundarijasi**

**Contents of dissertation abstract of Doctor of Philosophy (PhD) on
Philological sciences**

**Содержание автореферата диссертации доктора философских (PhD) по
филологическим наукам**

Dadajonov Avazbek Rahmatjon o'g'li

Muhokama nutqining funksional-uslubiy xususiyatlari.....3

Dadajonov Avazbek Rahmatjon ugli

Functional and stylistic characteristics of argumentative speech.....25

Дададжонов Авазбек Рахматжон угли

Функционально-стилистические особенности речи рассуждения.....47

E'lon qilingan ishlar ro'yxati

Список опубликованных работ

List of published works.....51

FARG‘ONA DAVLAT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/30.12.2019.Fil.05.02 RAQAMLI ILMIY KENGASH

FARG‘ONA DAVLAT UNIVERSITETI

DADAJONOV AVAZBEK RAXMATJON O‘G‘LI

MUHOKAMA NUTQINING FUNKSIONAL-USLUBIY
XUSUSIYATLARI

10.00.01 – O‘zbek tili

FILOLOGIYA fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI

Farg‘ona – 2025

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasida B2024.4.PhD/Fil5208 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Farg'ona davlat universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, ingliz, rus (rezume)) Farg'ona davlat universiteti veb-sahifasida (www.fdu.uz) hamda "Ziyonet" axborot-ta'lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Xojaliyev Ismoiljon Tojibayevich
filologiya fanlari nomzodi, dotsent

Rasmiy opponentlar:

Yuldashev Ma'rufjon Muhammadjonovich
filologiya fanlari doktori, professor

Rahimov Usmonjon Ergashevich
filologiya fanlari nomzodi, dotsent

Yetakchi tashkilot:

Qo'qon davlat universiteti

Dissertatsiya himoyasi Farg'ona davlat universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/30.12.2019.Fil.05.02 raqamli Ilmiy kengashning 2025-yil « 9 » oktabr soat 9⁰⁰ dagi majlisida bo'lib o'tadi (Manzil: Farg'ona shahar, Burhoniddin Marg'inoniy ko'chasi, 105-uy. Tel.: (99873) 244-57-82; e-mail: info@fdu.uz).

Dissertatsiya bilan Farg'ona davlat universiteti Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (577 raqami bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 100151, Farg'ona, Murabbiylar ko'chasi, 19-uy. Tel.: (99873) 244-44-94.

Dissertatsiya avtoreferati 2025-yil « 27 » sentabr kuni tarqatildi.

(2025-yil « 27 » sentabr dagi 48 raqamli reestr bayonnomasi).



G.Z.Rozikova

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash raisi, f.f.d., professor

M.T.Abdupattoyev

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash ilmiy kotibi, f.f.d., professor

A.B.Mamajonov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash qoshidagi ilmiy seminar raisi, f.f.d., professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahon tilshunosligida nutqning lisoniy belgilarini turli xil aspektlarda mukammal tadqiq etish alohida yo‘nalishlardan biri hisoblanadi. Ayniqsa, monologik nutq tiplarini funksional-semantik jihatdan tadqiq etish, ularning tipologik, lisoniy hamda nolisoniy belgilarini aniqlash, nutq uslublariga munosabatini o‘rganish muhim ahamiyat kasb etmoqda. Bu esa monologik nutq tipi bo‘lgan muhokama nutqining nazariy asoslarini izohlash zaruratini yuzaga keltirmoqda. Shuning uchun muhokama nutq tipini tahlil etish muhim, ularning tipologik, uslubiy belgilarini aniqlash amaliy ahamiyatga ega.

Dunyo tilshunosligida muhokama nutq tipining til va nutq tizimida tutgan o‘rnini, uning tipologik xususiyatlarini aniqlash asosida nutq sistemasidagi maqomini belgilash masalalarini o‘rganishga e‘tibor kuchaymoqda. Shuningdek, muhokama nutq tipining shakl va mazmun tomoniga ega bo‘lgan ikki tomonlama mohiyat kasb etuvchi tipologik belgilariga e‘tibor qaratish, uni yuzaga chiqaruvchi lisoniy belgilarini aniqlash dolzarb ahamiyatga ega. Bu esa muhokama nutqining nutq tizimida tutgan o‘rnini ko‘rsatish, tasnif qilish, nazariy jihatdan asoslashni taqozo etadi.

O‘zbek tilshunosligida nutq tiplarini o‘rganish borasida bir qator ishlar amalga oshirilgan bo‘lsa ham, muhokama nutqining tipologik belgilarini aniqlash, uning lisoniy tizimda tutgan o‘rnini, boshqa (tasvir, rivoya) nutq tiplari bilan aloqasini o‘rganish, lisoniy xususiyatlarini va funksional uslublarga munosabatini, tipologik belgilarini aniqlash uchun muhokama nutqining leksik-semantik, morfologik, sintaktik xususiyatlarini tadqiq etishga bo‘lgan ehtiyoj katta. Ma’lumki, “Yangi O‘zbekiston sharoitida o‘zbek tilini rivojlantirish, bu yo‘nalishdagi tadqiqotlarni takomillashtirish orqali yoshlarni ona tiliga va Vatanga muhabbat, milliy an’ana va qadriyatlarga sadoqat ruhida tarbiyalash ustuvor vazifalardan biridir. Oliy ta’lim tizimida o‘zbek tili ilmiy maktablarning zamonaviy metodlarini o‘rganishni yo‘lga qo‘yish, tilning rivojlanish istiqbollari bilan bog‘liq ilmiy muammolarni aniqlash, tadqiq etish”¹ bugungi kunning eng muhim vazifalaridan biridir. Haqiqatan, bugungi kunda yurtimizda ilm-ma’rifat sohasiga, jumladan, ta’limda yetuk kadrlar tayyorlash masalasiga e‘tiborning kuchayishi natijasida maktabgacha ta’limdan oliy o‘quv yurtidan keyingi bosqichgacha bo‘lgan jarayon izchil ravishda tubdan yangilanmoqda. Tabiiyki, har qanday amaliy natijalar muayyan tushunchalarning mohiyatini chuqur o‘rganish, to‘laqonli anglashdan boshlanadi. Muhokama nutq tipini funksional-semantik va struktur jihatdan tadqiq etish ana shu yo‘ldagi izlanishlardan biri. Bunday nutq tipining mazmuniy tuzilishini funksional-uslubiy va sintagmatik jihatlari bilan bog‘liqlikda o‘rganish bugungi kunda tilshunoslikning dolzarb masalalaridan biri sanaladi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 21-oktabrdagi PF-5850-son “O‘zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqeyini tubdan oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”, 2020-yil 20-oktabrdagi PF-6084-son “Mamlakatimizda

¹ O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2020-yil 24-yanvardagi Oliy Majlisga Murojaatnomasi– <http://uza.uz/oz/politics/zbekiston-respublikasi-prezidentishavkat-mirzoyevning-oliy>. (Murojaat sanasi: 24-07-2024)

o‘zbek tilini yanada rivojlantirish va til siyosatini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”, 2020-yil 6-noyabrdagi PF-6108-son “O‘zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta‘lim-tarbiya va ilm-fan sohalarini rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi farmonlari; 2018-yil 5-iyundagi PQ-3775-son “Oliy ta‘lim muassasalarida ta‘lim sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda faol ishtirokini ta‘minlash bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi Qarori va boshqa me‘yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni bajarishda ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalar rivojlanishi ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Tadqiqot respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining I.“Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma‘naviy-ma‘rifiy rivojlantirishda innovatsion g‘oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo‘llari” ustuvor yo‘nalishiga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Nutq va uning tipologik xususiyatlarini o‘rganishga XIX asr notiqdari tomonidan e‘tibor qaratilgan. Ammo bu qarashlar notiqdarlikda nutq tiplaridan foydalanish muammolari bilan bog‘liq bo‘lib, ular amaliy xarakter kasb etgan. Nutqni tipologik jihatdan o‘rganishga ilmiy-nazariy jihatdan yondashish XX asrning 20-yillariga to‘g‘ri keladi. Dastlab L.P.Yakubinskiy, keyinchalik A.A.Xolodovich, R.A.Budagov² kabi tilshunos olimlar bu muammoga munosabat bildirganlar va nutqning tipologik bo‘linishiga e‘tibor qaratganlar. Biroq olib borilgan tadqiqotlar, asosan, nutq shakllarini qiyoslash va o‘rganishga qaratilgan bo‘lib, ular dialogik nutqqa e‘tibor berganlar. Monologik nutqning tipologik belgilari muammosi e‘tibordan chetda qolgan.

Nutq tipologiyasidagi bo‘linishlarni ilmiy-monografik tadqiq etish dastlab O.A.Nechayevaning³ ilmiy ishlarida kuzatiladi. Ammo olib borilgan tadqiqot “nutq tiplarining umumiy belgilarini o‘rganish masalalariga qaratilgan bo‘lsa-da, uning lisoniy xususiyatlari to‘liq ochib berilmagan”⁴. A.N.Kojin, V.V.Odinov, Moskalskaya, M.P.Brandes, T.B.Trosheva kabi olimlar⁵ nutqning funksional-semantik tiplarini aniqlash mezonlarini birinchilardan bo‘lib o‘z ilmiy ishlarida ta‘kidlab o‘tganlar. Mazkur tilshunoslar bu nutq tiplarini alohida guruhlariga ajratgan

² Якубинский Л. О диалогической речи, в сб. Русская речь, вып. 1. – М.:1923; Холодович А. О типологии речи, Историческо-филологические исследования. Сб. статей к 75-летию акад. – М.:1974; Будагов А. Типология сходств и различий близкородственных языков – М.:1976.

³ Нечаева О.А. Функционально-смысловые типы речи. – Улан-Уда: Бурят. кн. изд-во, 1974.

⁴ Салтанова Ю.Н. Специфика рассуждения в художественном тексте: Дисс. ...канд. филол. наук. – М.,2008. – С. 29.

⁵ Кожина М. К основаниям функциональной стилистики. – М.: Пермь, 1968; Одинцов В. Стилистика текста. – М.: Наука, 1980; Москальская О.И. Грамматика текста. – М.:Высшая школа, 1981; Брандес М. Стилистический анализ. – М.:Высшая школа, 1971; Трошева Т.Б. Формирование рассуждения в процессе развития научного стиля русского литературного языка XVIII - XX вв. (сопоставительно с другими функциональными разновидностями): Дисс. ...док. филол. наук. – М.: Пермь, 2000.

holda ularning umumiy jihatlarigagina e'tibor qaratganlar⁶. T.B.Trosheva⁷ ilmiy ishida funksional-semantik nutq tiplarini aniqlash mezonlarini belgilashga kommunikativ-funksional, leksik, grammatik, struktur jihatdan yondashish zarurligi ko'rsatilgan, biroq har bir nutq tipining, ayniqsa, muhokama nutq tipining leksik-semantik, morfologik, sintaktik xususiyatlari yoritilmagan. A.Zolotova va N.K.Onipenkolar esa nutq tiplariga pragmatolingvistik tomondan yondashgan, lekin tadqiqot maqsadidan kelib chiqib, lisoniy xususiyatlarini tahlilga tortmagan⁸.

O'zbek tilshunosligida nutqning funksional-semantik tiplarini o'rganish borasida olib borilgan ilmiy tadqiqot ishlari sanoqli bo'lib, dastlab A.Mamajonovning "Tekst lingvistikasi" kitobida matnning umumiy xususiyatlarini aniqlash doirasida muhokama matn tipi sifatida tilga olinadi. Keyinchalik I.Xojaliyevning "Tasvir nutq tipining lingvistik xususiyatlari" nomli dissertatsiya ishida e'tibor qaratilgan⁹. M.Yo'ldashevning "Badiiy matn lingvopoetikasi", M.Qurbonovanning "Matn tilshunosligi" kitobi¹⁰da nutq tiplarining umumiy bo'linishi haqida ma'lumotlar keltirilgan. Shunday bo'lsa-da, o'zbek tilshunosligida muhokama nutq tipi tadqiqot obyekti sifatida ilmiy-nazariy jihatdan tadqiq etilmagan. Yuqorida qayd etilgan manbalar asosida aytish mumkinki, o'zbek tilshunosligida nutqning funksional-semantik tiplari, jumladan, muhokama nutq tipining o'rganilishi dolzab muammolardan biri sanaladi.

Tadqiqotning dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Tadqiqot ishi Farg'ona davlat universiteti ilmiy-tadqiqot ishlari rejasining "Til tadqiqiga zamonaviy ilmiy paradigmalari asosida yondashuv" yo'nalishi doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi muhokama nutq tipining funksional va uslubiy belgilarini, uning lingvistik xususiyatlarini aniqlash orqali monologik nutq tiplari doirasidagi maqomini belgilashdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

muhokama nutq tipining terminologik tavsifi va talqinlarini tahlil qilish asosida uning nutq tizimida tutgan maqomini belgilash;

muhokama nutq tipining tarkibiy qismlariga xos bo'lgan qiyoslash, dalillash va shu asosda xulosa chiqarish kabi mazmuniy, funksional, uslubiy belgilarini aniqlash va asoslash;

muhokama nutqning kompozitsion tuzilishini o'rganish va buning natijasi o'laroq uning lisoniy qurilishini aniqlash;

muhokama nutq tipining leksik-semantik, morfologik, sintaktik xususiyatlarini dalillash, lisoniy tabiatini yoritib berish;

⁶ Салтанова Ю.Н. Специфика рассуждения в художественном тексте: Дисс. ... канд. филол. наук. – М., 2008. – С. 31.

⁷ Трошева Т.Б. Формирование рассуждения в процессе развития научного стиля русского литературного языка XVIII - XX вв. (сопоставительно с другими функциональными разновидностями): Дисс. ... док. филол. наук. – М.: Пермь, 2000. – С.78.

⁸ Золотова Г.А., Онипенко Н.К., Сидорова М.Ю. Коммуникативная грамматика русского языка. – М: МГУ, 1998. – С.12.

⁹ Хожалиев И.Т. Тасвир нутқ типининг лингвистик хусусиятлари: Филол. фан. номз. ... дисс. автореф. – Тошкент, 1998.

¹⁰ Yo'ldashev M. Badiiy matn lingvopoetikasi. – Toshkent. 2021; Qurbonova M. Matn tilshunosligi. – Toshkent: Universitet, 2014.

muhokama nutq tipining uslubiy belgilarini o'rganish orqali uning funksional uslublarga xoslanishini asoslash.

Tadqiqotning obyekti sifatida badiiy, ilmiy matn va darsliklarda berilgan muhokama nutqi matnlari tanlangan.

Tadqiqot predmetini nutqda namoyon bo'ladigan muhokama matnlarining lisoniy va kognitiv-semantik xususiyatlari tashkil etadi.

Tadqiqot usullari. Tadqiqotda kontekstual, diskursiv, statistik, konseptualashtirish, izohlash, umumlashtirish usullaridan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

muhokama nutq tipining tilshunoslik, falsafa, psixologiyaga oid terminologik tushuncha va talqinlari tahlil qilingan, mavjud talqin va tavsiflarni o'zaro qiyoslash orqali muhokama, munozara, mulohaza kabi atamalarining terminologik ma'nosi yoritib berilganligi va shu asosda muhokamaning nutq tizimida tutgan o'rni, maqomi aniqlangan;

muhokama nutqining funksional-semantik jihatlarini belgilovchi qiyoslash, dalillash, xulosalash kabi xususiyatlari hamda uning tezis, dalil, xulosa kabi kompozitsion qurilishi va bu qismlarning shakllanish belgilari asoslangan;

muhokama nutq tipining leksik-semantik, morfem-morfologik, sintaktik xususiyatlari ilmiy-nazariy jihatdan o'rganilib, ma'nodosh, shakldosh so'zlarning qo'llanilishi, muhokama nutq tipida qiyoslash, solishtirish, asoslash va shu asosda xulosa chiqarish yetakchilik qilishi, ularning nutq tipining shakllanishidagi o'rni va ahamiyati misollar bilan dalillangan;

muhokama nutq tipining funksional uslubiy belgilarini o'rganish orqali uning qaysi uslubga xoslanishidan qat'i nazar, tezis, dalil va xulosadan tashkil topishi, uning ilmiy uslubda to'liq shaklda namoyon bo'lishi, badiiy va publitsistik uslublarda to'liqsiz muhokama ham qo'llanilishi, rasmiy uslub ma'lum bir qolipga ega ekanligi, so'zlashuv uslubi oddiy axborot almashinuvidan iborat bo'lganligi uchun bu uslublarda muhokama nutq tipi qo'llanmasligi isbotlangan.

Tadqiqotning amaliy natijasi quyidagilardan iborat:

muhokama nutq tipining funksional-uslubiy xususiyatlari tadqiqi natijasida chiqarilgan ilmiy xulosalar o'zbek tili nutq tipologiyasi, matn tilshunosligi hamda funksional grammatik nazariyalarni boyitishi dalillangan;

muhokama nutqining lisoniy xususiyatlarini o'rganish asosida olingan ilmiy-nazariy xulosalar matn tilshunosligi, matn sintaksisi, matnning lisoniy va grammatik tahlili bo'yicha yangi darslik va o'quv qo'llanmalar yaratish, mavjud darslik hamda qo'llanmalarining mukammallashtirish xizmat qilishi asoslangan;

muhokama nutq tipining nutq uslublardagi ko'rinishlari tadqiqi natijasida olingan xulosalar uslubshunoslik fanini o'qitish, matn tuzish ko'nikmalarini oshirishga xizmat qilishi yoritib berilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi ilmiy yondashuvlar, tahliliy metodlar, tan olingan nazariyalar va lingvistik konsepsiyalarning qo'llanilganligi, tahlilga tortilgan katta hajmdagi daliliy manbalar va amalga oshirilgan tadqiqot natijalarining dissertatsiya ishidagi nazariy holatlarga muvofiqligi, turli jadval va diagrammalar bilan isbotlanganligi, tahlil hamda natijalarning asoslanganligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati shundaki, dissertatsiya materiallarini tadqiq etishda olingan ilmiy-nazariy xulosalar nazariy tilshunoslik, xususan, nutq tipologiyasining rivojlanishiga muayyan darajada hissa qo'shadi.

Dissertatsiya natijalarining amaliy ahamiyati shundaki, dissertatsiya materiallaridan magistratura va bakalavr bosqichlari uchun kognitiv lingvistika, matn tilshunosligi, nutq tipologiyasi fanlari bo'yicha darslik va o'quv qo'llanmalar yaratish, maxsus kurs, ilmiy ma'ruzalar, seminarlarda foydalanish mumkinligida ko'rinadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Muhokama nutq tipining funksional-uslubiy xususiyatlarini aniqlash bo'yicha olingan ilmiy-nazariy xulosalar natijalari asosida:

muhokama nutq tipining tilshunoslik, falsafa, psixologiyaga oid terminologik tushuncha va talqinlari tahlil qilinganligi, mavjud talqin va tavsiflarni o'zaro qiyoslash orqali muhokama, munozara, mulohaza kabi atamalarning terminologik ma'nosi yoritib berilganligi va shu asosda muhokamaning nutq tizimida tutgan o'rni, maqomi aniqlanganligiga doir ilmiy xulosa va natijalardan 2022-2023-yillarga mo'ljallangan AL-FDU2022307-010 raqamli "Lingvistik tahrir va tarjimashunoslik" ilmiy-tadqiqot markazida "Antiplagiat" dasturini amaliyotga joriy etishda foydalanilgan (Farg'ona davlat universitetining 2025-yil 19-fevraldagi 04/1346-son ma'lumotnomasi). Natijada "Lingvistik tahrir va tarjimashunoslik" ilmiy-tadqiqot markazida amalga oshirilgan antiplagiat tekshiruvlarining samaradorligi oshgan, antiplagiatdan o'tkazilgan darslik, o'quv qo'llanma, monografiya, ilmiy risolalarning tipologik belgilari anqlangan;

muhokama nutq tipining leksik-semantik, morfem-morfologik, sintaktik xususiyatlari ilmiy-nazariy jihatdan o'rganilib, ma'nodosh, shakldosh so'zlarning qo'llanishi, muhokama nutq tipida qiyoslash, solishtirish, asoslash va shu asosda xulosa chiqarish yetakchilik qilishi, ularning nutq tipining shakllanishidagi o'rni va ahamiyati misollar bilan dalillanganligiga doir xulosalardan O'zbekiston davlat xoreografiya akademiyasida amalga oshirilgan "O'zbek milliy raqs san'atini targ'ib etishga bag'ishlangan veb-sayt va multimedia mahsulotlari to'plamini yaratish" mavzusidagi FZ-2019081663 raqamli ilmiy-amaliy loyihani bajarishda foydalanigan (O'zbekiston davlat xoreografiya akademiyasining 2025-yil 22-yanvardagi 01/04-176-son ma'lumotnomasi). Natijalarning joriy qilinishi muhokama nutqining leksik-semantik, morfem-morfologik, sintaktik xususiyatlarini aniqlash orqali o'zbek milliy raqs san'atini targ'ib etishga bag'ishlangan veb-sayt va multimedia mahsulotlari to'plamini yaratishga xizmat qilgan;

muhokama nutq tipining funksional uslubiy belgilarini o'rganish orqali uning qaysi uslubga xoslanishidan qat'i nazar, tezis, dalil va xulosadan tashkil topishi, uning ilmiy uslubda to'liq shaklda namoyon bo'lishi, badiiy va publitsistik uslublarda to'liqsiz muhokama ham qo'llanilishi, rasmiy uslub ma'lum bir qolipga ega ekanligi, so'zlashuv uslubi oddiy axborot almashinuvidan iborat bo'lganligi uchun bu uslublarda muhokama nutq tipi qo'llanmasligi isbotlanganligiga oid ilmiy

qarash va xulosalardan 2023-2024-yillarda O‘zbekiston Milliy teleradiokompaniyasi “O‘zbekiston” teleradiokanalining “Ta’lim va taraqqiyot”, “Millat va ma’naviyat”, “Ijod zavqi”, “Bedorlik” eshittirishlari ssenariysini yozishda foydalanilgan (O‘zbekiston Milliy teleradiokompaniyasi “O‘zbekiston teleradiokanali” davlat muassasasining 2025-yil 1-yanvardagi 26-36-942-son ma’lumotnomasi). Natijada eshittirishlarning ssenariylarini yozishda mantiqiy izchillik va uzviylik ta’minlangan hamda ularning badiiy-estetik ta’sirchanligi ortgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Tadqiqot natijalari 2 ta xalqaro va 2 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida ma’ruza ko‘rinishida bayon etilgan hamda aprobatsiyadan o‘tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e’lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha jami 11 ta ilmiy ish, jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 7 ta, jumladan, xorijiy jurnallarda 5 ta maqola nashr etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, uch bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxatidan iborat bo‘lib, 160 sahifani tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati asoslangan, tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi, mavzuning o‘rganilganlik darajasi yoritilgan, tadqiqotning maqsadi, vazifalari, obykti, predmeti, ilmiy yangiligi, amaliy natijasi va ularning ishonchligi, ilmiy va amaliy ahamiyati, joriy qilinishi, aprobatsiyasi, natijalarning e’lon qilinishi va dissertatsiyaning tuzilishi haqida ma’lumot berilgan.

Dissertatsiyaning birinchi bobi “**Muhokama nutqini tipologik aspektda o‘rganishning nazariy masalalari**” deb nomlanib, nutq tiplarining jahon va o‘zbek tilshunosligida o‘rganilishi, nutqning funksional-uslubiy tomondan guruhlarga bo‘linishi, muhokama nutqining terminologik tadqiqi masalalariga e’tibor qaratilgan.

Bobning birinchi fasli “**Muhokama nutqining terminologik tushunchasi va talqinlari**” deb nomlangan. Tilshunoslikda nutq tiplarini o‘rganish tilshunos olimlarning e’tiborini tortgan. Buning natijasida ko‘plab ilmiy izlanishlar amalga oshirilmoqda. Nutq tipologiyasi masalasi juda keng qamrovli bo‘lib, bu masalaga tilshunos olimlarimiz turli tomondan yondashmoqdalar. Shuningdek, “Olib borilgan ko‘plab tadqiqotlarda nutq shakllari farqlanmagan. Jumladan, monologik va dialogik nutq birgalikda o‘rganilgan. Ularning har biri o‘ziga xos xususiyatga ega ekanligi e’tibordan chetda qolgan”¹¹.

XX asrning 60-yillariga kelib nutq tiplari funksional-mazmuniy tomondan o‘rganila boshlandi. 70-80-yillar rus tilshunosligida “Funksional-mazmuniy nutq

¹¹ Хожалиев И.Т. Тасвир нутқ типининг лингвистик хусусиятлари: Филол. фан. номз. ...дисс. автореф. – Тошкент, 1998. – Б.13.

tiplari” (функционально-смысловы типы речи) atamasi ostida ilmiy izlanishlar olib borildi. Bu ilmiy tadqiqotlarda nutq tiplari matn bilan birgalikda o‘rganildi.

Nutqning funksional-semantik tipi tushunchasini ilmiy sohaga birinchi bo‘lib rus tilshunosi O.A.Nechayeva olib kirgan. Uning tasvir, rivoya va muhokama nutqini o‘rganishga bag‘ishlangan monografiyasi nashr etilishi bilan badiiy matnlardagi monologik nutq tiplarini funksional-mazmuniy jihatdan tadqiq etish an‘anasi yuzaga keldi. Lekin olib borilgan tadqiqotlar badiiy matn bilan cheklandi. Nutqning tipologik bo‘linishi esa boshqa nutq uslublari uchun ham xosligi e‘tibordan chetda qoldi. Chunki nutqning funksional-mazmun jihatdan tipiklashishi bevosita nutq tuzuvchining maqsadi, niyati va motivi bilan bog‘liq bo‘lib, u to‘la ma’noda kognitiv hodisa hisoblanadi.

Hozirgi o‘zbek tilida *muhokama* so‘zi ikki ma’noda qo‘llaniladi:

1. Insonlar orasidagi oddiy so‘zlashuv tilida.
2. Tilshunoslikdagi terminologik ma’noda.

Oddiy so‘zlashuv uslubida insonlar orasida biror xulosaga kelish uchun ko‘pchilikning fikrini olish, fikr almashish, bahslashish, har tomonlama o‘ylash; fikr yuritish, mulohaza; fikr¹² va shu kabi ma’nolarni anglatadi.

Tilshunoslikda terminologik ma’noda biror narsa yoki hodisalar o‘rganiladigan, ularning ichki xususiyatlari ochib beriladigan, ma’lum qoidalar isbotlanadigan nutq turi. Muhokama mantiqiy batafsil ko‘rinishda taqdim etilgan mavzu bo‘yicha xulosalar yoki xulosalar zanjirini tashkil qilishdagi dalillar va ular asosida yuzaga chiqadigan tarkibiy hukmlar o‘rtasidagi maxsus mantiqiy munosabatlar bilan tavsiflanadigan nutq turidir. Shuning uchun ilmiy adabiyotlarda “Muhokama nutqi matnning bir turi bo‘lib, unda obyektlar yoki hodisalar, ularning mavjudligiga to‘xtalmaydi, ammo ularning ichki xususiyatlari kommunikativ vazifalarning o‘zaro ta’sirini ochib berish orqali tekshiriladi va shu bilan ma’lum qoidalarni isbotlaydi. Muhokama nutq tipida har qanday mavzu bo‘yicha mantiqiy izchil ko‘rinishda berib boriladigan xulosalar yoki xulosalar yig‘indisini tashkil etuvchi uning tarkibiy hukmlari o‘rtasidagi maxsus mantiqiy munosabatlar tavsiflanadi. Muhokama nutqi mavhum fikrlash shakliga mos keladi. Bu tipdagi matn fikrlashning mantiqiy asosi va gapning ma’nosiga qarab o‘ziga xos lingvistik tuzilishga ega bo‘lib, sabab-natija munosabatlari bilan tavsiflanadi”¹³.

Muhokama terminiga lug‘at va manbalarda turlicha ta’riflar beriladi. Masalan, falsafa qomusiy lug‘atida: “Muhokama – kishilarning narsa, voqea, hodisa va holatlar haqidagi fikri yoki hukmi. Fikr yoki hukm – tafakkuriy faoliyat turi, odam miyasi va ongining mahsuli”¹⁴ – deyiladi.

Muhokama nutqi o‘tgan asrning 70-yillaridan boshlab tilshunoslikda termin sifatida, nutq tipi shaklida esa rus tilshunosligida ilmiy qarash yoki ma’lum ilmiy yo‘nalish o‘laroq shakllana boshladi.

Shirin azobim – sevgim... Bu shirin azob – necha asrlardan beri oshiqalar oromini, halovatini o‘g‘irlagan ulug‘ dard. Qaysni “junun” etgan, Farhodga tog‘ni

¹² O‘zbek tilining izohli lug‘ati, 6 jildli.3-jild. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2022. – B.253.

¹³ Виноградов В.С. Введение в переводоведение. – М.: ИССО РАО, 2001. – С. 244.

¹⁴ Falsafa qomusiy lug‘ati. – Toshkent: Sharq, 2004. – B. 184.

qo‘porib seviklisi Shiringa suv hadya etishdek qudratni ato etgan buyuk bir tuyg‘u... Toki odam zoti bor ekan bu tuyg‘u qalblarni larzaga keltiraveradi (O‘tkir Hoshimov, “Daftar hoshiyasidagi bitiklar”, 29-bet).

Demak, muhokama so‘zlashuv nutqida qo‘llanuvchi munozara, mulohaza so‘zlaridan farq qiladi. U terminologik ma’noda takrorlanuvchi tipik belgilarga ega bo‘lgan monologik nutq turi hisoblanadi.

Bobning **“Muhokama nutqining kompozitsion qurilishi”** deb nomlangan ikkinchi faslida muhokama nutq tipining kompozitsion qurilishi haqida ma’lumotlar berib o‘tilgan.

Har qanday nutq tipi ma’lum bir kompozitsion qurilishga ega bo‘ladi. Rivoya nutq tipiga voqeabandlik xos bo‘lgani uchun uning kompozitsion qurilishi voqeaning boshlanishi, avj nuqtasi va yakunlanishi kabi qismlardan iborat bo‘ladi.

Tasvir nutq tipining kompozitsion qurilishida esa belgilar sanab ko‘rsatiladi va ana shu belgilar asosida biror narsa yoki hodisaning tasviri beriladi. Qaysi belgining avval berilishi muhim emas, bunda eng muhimi, tasvirlanayotgan obyektning tinglovchi (o‘quvchi) ko‘z oldiga keltirish uchun uning muhim belgilari sanab ko‘rsatiladi. Tasvir nutq tipida voqeabandlik ikkinchi o‘ringa tushadi. Unda ko‘rsatish, tasvirlash asosiy o‘ringa chiqadi. Bu nutq tipida dinamiklik mavjud bo‘lmaydi, uning yetakchi xususiyati turg‘unlikdir.

Muhokama nutq tipining rivoya va tasvirdan farqli tomoni shundaki, unda fikr ustunlik qiladi. Dalillar qiyoslanadi, argumentlilik ustuvor bo‘ladi. Fikrlar dinamikasi birinchi o‘ringa chiqadi. Muhokama nutq tipida narsa-hodisaning o‘zi yoki u bilan bog‘liq voqea emas, balki u haqidagi fikr muhim o‘rin tutadi. Shuning uchun muhokama nutqining kompozitsion qurilishi tasvir va rivoyaning kompozitsion qurilishidan keskin farq qiladi.

Muhokama nutq tipi kompozitsion qurilish nuqtayi nazaridan, asosan, uch qismdan tashkil topadi.

1. Tezis. Asosiy g‘oya. Mavzu.
2. Dalillar. Isbotlash uchun yoki rad etish uchun.
3. Xulosa. Matndan anglashilgan umumiy fikr yoki hukm.

Bu bo‘linish umumiy bo‘lib, muhokama nutqining asosiy qismlarni tashkil etadi. Badiiy uslubda bu qismlarning barchasi to‘liq bo‘lmasligi mumkin, chunki badiiy uslubda to‘liqsiz muhokama ham uchraydi, uslub talabidan kelib chiqib, hukm o‘quvchi ixtiyoriga qoldiriladi.

Ilmiy uslubdagi muhokamalarda esa aniqlikka e’tibor qaratiladi. Fikrni yana ham aniqlashtirish, nazariy fikrni isbotlash uchun dalillar kengroq beriladi. Ilmiy muhokama nutqida xulosa ham boshqa uslubdagi muhokamalarga qaraganda aniq, isbotlangan yakuniy xulosaga ega nazariyalar bilan ajralib turadi.

Tezis – bu haqiqatni isbotlash kerak bo‘lgan taklif, mavzu. U matnning asosiy mavzusini belgilaydi. Muhokama nutq tipida esa muhokama uchun mavzuni ochib beradi. Shunday holatlar ham borki, agar tezis muallif nuqtayi nazarida noto‘g‘ri bo‘lsa, muhokama tuzilishiga antiteza, ya’ni yuqoridagi tezisga qarama-qarshi bo‘lgan hukm beriladi. Shunday vaziyatlarda antitezani isbotlash uchun kirish so‘zlardan unumli foydalaniladi.

Tezisdagi asosiy g‘oya fikr, mulohaza, isbotga qaratilgan bo‘ladi. Muhokama nutq tipi kompozitsiyasidagi tezis ham aynan matnning dastlabki mazmunini ochishga qaratilgan bo‘ladi.

Dalil muhokama nutqining kompozitsion tuzilishida tezisdan keyin qo‘llanilib, matndan anglashilgan tezisni ochib berishga, isbotlashga qaratilgan bo‘ladi. Muhokama nutq tipida isbotlangan dalillar orqali xulosaga kelish mumkin.

Muhokama nutq tipidagi xulosa sodda ko‘rinishda bo‘lib, matn mazmunidan sezilib turadi.

Xulosa insonlarda oldindan ma‘lum bo‘lgan qarash yoki nazariya orqali to‘ldiriladigan axborotning yetishmayotgan qismidir. Masalan, *Qora qog‘oz harchand yuvgan bilan oq bo‘lmaydi. Oq qog‘ozni qora qilish uchun bir chiziq tortish kifoya. Qorani oqlash emas, oqni qoralamaslik adolatdir* (O‘tkir Hoshimov, “Daftar hoshiyasidagi bitiklar”, 22-bet).

Muhokama nutq tipining umumiy ma‘nosi xulosaning ma‘nosiga bog‘liq bo‘lsa, xulosaning ma‘nosi esa, o‘z navbatida, butun matn mavzusining maqsadiga asoslangan bo‘ladi.

Demak, muhokama nutq tipi o‘ziga xos kompozitsion qurilishga egaligi bilan tasvir va rivoya nutq tipidan farq qiladi. Tasvirda narsa-hodisaning belgilari sanab ko‘rsatilgani uchun uning kompozitsion qurilishida gaplarning parallel bog‘lanishi kuzatiladi. Voqealar yoki fikr rivoji kuzatilmaydi. Rivoyada esa dinamik rivojlanuvchi voqea-hodisa bayon qilingani uchun u ekspozitsiya, voqealar rivoji, yechim tarzidagi kompozitsion qurilishga ega bo‘ladi. Muhokama nutq tipining asosida fikrlash jarayoni turadi¹⁵. Shuning uchun u muammo (tezis), argument (dalil), xulosa (hukm) kabi qismlardan iborat bo‘ladi.

Bobning **“Muhokama nutqining lisoniy strukturasi”** deb nomlangan uchinchi faslida mavzuga doir tadqiqotlar va tilshunoslarning lisoniy struktura haqidagi qarashlari yoritilgan.

Muhokama nutqi qurilishi va tarkibiy qismlarining o‘zaro aloqadorligi jihatidan o‘ziga xos lisoniy tuzilishga ega bo‘ladi.

Tezis dalilning umumiy tuzilishi doirasida faraziy bayonotni o‘rnatish maqsadiga xizmat qiladi. Tezisning bayoni faraz modalligi va ilmiy atamalarning katta konsentratsiyasi hamda lug‘atdan foydalanish bilan tavsiflanadi. Tezisni murakkab hukm sifatida shakllantirishda mantiqiy bog‘lanishning tabiati aniq ko‘rsatiladi¹⁶.

Y.N.Saltanova ta’kidlaganidek, muhokama nutq tipining lingvistik tuzilishida kompozitsion qurilishdagi qismlarning har biri lisoniy tomondan kengaytirib, to‘ldirib boriladi. Masalan, tezisni lisoniy tarafdin shakllantirishda tobe bog‘lovchilardan foydalaniladi.

Muhokama nutq tipida tezis nazariy yoki empirik umumlashmalarni berish, voqea-hodisalarni haqiqiy bog‘liqligini ko‘rsatish uchun boshlanma vazifasini bajaradi. Bu esa dalillarni keltirishda foydalaniladigan *agar, shunday, demak, basharti, mabodo* kabi lingvistik vositalar orqali beriladi va xulosa qismi bilan mantiqiy bog‘liqlik ta’minlanadi.

¹⁵ Хожалиев И.Т. Тасвир нутқ типининг лингвистик хусусиятлари: Филол. фан. номз. ...дисс. автореф. – Тошкент, 1998. – Б. 28.

¹⁶ Салтанова Ю.Н. Специфика рассуждения в художественном тексте: Дисс. ...канд. филол. наук. – М:2008. – С. 72.

Xulosa muhokama nutq tipining asosini tashkil etadi, chunki muhokamada chiqariladigan hukm xulosada aks etadi. Shuning uchun muhokama nutq tipida xulosa nutq strukturasi asosiy qismi sanaladi.

Hukm tuzilishida lisoniy vositalar muhim rol o'ynaydi. Matndagi dalillar asosida chiqarilgan hukm qoida tariqasida umumiy modallik bilan tavsiflanadi.

Muhokama nutq tipida doim sabab-oqibat munosabatlari mavjud bo'ladi, bunday munosabatlarni yuzaga chiqarishda quyidagi lisoniy vositalardan foydalaniladi: *shuning uchun, shu sababli, shu tufayli, nega, chunki, shunday qilib* kabi bog'lovchi va ko'makchili qurilmalar.

Monologik nutq tipi sifatida shakllangan muhokama nutqi uchun, yuqorida ta'kidlaganimizdek, kamida ikkita gap shaklidagi sabab-oqibat munosabati bo'lishi zarur. Bitta gapdan iborat bo'lgan hukm muhokama nutq tipi bo'la olmaydi. Muhokama nutqida qo'yilgan muammo sabab-oqibat izchilligida yechiladi. Bunday yechimda narsaning o'zi, uning ko'rinishi, tarixi emas, balki u haqidagi fikr birinchi darajaga chiqadi. U haqidagi ma'lumotlar sanab ko'rsatiladi. Bunda kirish so'zlar alohida o'rin tutadi. Ular chiqariladigan xulosa, ya'ni hukm uchun asoslarning ketma-ketligini bildiradi:

“Bugungi kunda hayotimizni avtomobillarsiz tasavvur qilib bo'lmaydi. U uzog'imizni yaqin, mushkulimizni oson qiladi, ammo avtomobillardan chiqayotgan tutun atrof muhitni juda ko'p miqdorda zaharlamogda. Bu zaharlanishning oldini olish maqsadida olimlar elektr tokida harakatlanadigan mashinalarni ixtiro qilmoqdalar. Bu mashinalarning insonlar va tabiatga oddiy mashinalardan zarari kamroq. Birinchidan, elektr benzina nisbatan ancha arzon, ikkinchidan esa ekologiyaga va atrof muhitga ziyoni juda kam. Shuning uchun bugungi kunda elektromobillar bozori juda chaqqon” (“Yaypan ovozi” gazetasi).

Demak, muhokama nutq tipining nutqiy ifodasida dastlab mavzu beriladi va mavzuning mohiyati ochiladi hamda xulosa qismida kirish so'zlar (*birinchidan, ikkinchidan*), ko'makchili qurilmalar (*shuning uchun*) orqali muhokama natijasida chiqarilgan hukm (*Shuning uchun bugungi kunda elektromobillar bozori juda chaqqon*) keladi.

Muhokama nutq tipining lisoniy strukturasi belgilashda matnning semantik strukturasi va uning lisoniy belgilariga ham e'tibor qaratish zarur. Shuning uchun tilshunos O.A.Nechayeva o'zining “Funksional-mazmuniy nutq tiplari” (функционально-смысловые типы речи) nomli asarida muhokama nutqining semantik turlarini lingvistik belgilariga qarab quyidagi guruhlariga bo'ladi:

1) xulosada sifat yoki ot shaklida predikat bilan baholovchi nominal birliklar vositasida shakllangan muhokama;

2) holat toifasida so'z shaklidagi predikat bilan holat ma'nosi orqali yuzaga kelgan muhokama;

3) ish-harakatning zarurligi, imkoniyati yoki maqsadga muvofiqligi ma'nosini tegishli grammatik ko'rsatkichlar (modal predikativ so'zlar va xulosadagi noaniq qo'shishlar orqali) bilan asoslash orqali rivojlangan muhokama;

4) shartli harakatlar bilan muhokama;

5) ritorik savol yo undov shaklida qat'iy rad etish yo tasdiqlash bilan yoki inkor so'zlar bilan ifodalangan predikat bilan hosil qilingan muhokama¹⁷.

Shunday qilib, har bir nutq turi o'zining vazifaviy xususiyatlaridan kelib chiqqan holda til birliklarini tanlaydi. Nutq turlarining shakllanishini ta'minlovchi til birliklari uning lisoniy tuzilishini belgilaydi. Muhokama nutq tipida sabab-oqibat munosabati, ya'ni narsaning o'zi, uning harakati yoki tarixi emas, balki u haqidagi fikr ifodalangani sababli unda sabab-oqibat munosabatini ifodalovchi til birliklari muhim o'rin egallaydi.

Ikkinchi bob "**Muhokama nutqining leksik-grammatik xususiyatlari**" deb nomlanib, muhokama nutqining leksik, grammatik tadqiqi amalga oshirilgan.

Ikkinchi bobning "**Muhokama nutq tipining leksik-semantik xususiyatlari**" deb nomlangan birinchi faslida leksik-semantik xususiyatlari tadqiq etilgan.

Tildagi har bir vositaning o'z vazifasi, ma'no qobig'i, boshqa vositalar, birliklar bilan birikish qonuniyatlari bor. Bu qonuniyatlar bevosita nutq jarayonida amal qiladi. Ushbu qonuniyatlarning amal qilishida tilning eng muhim birligi bo'lgan leksemalar muhim o'rin tutadi, chunki fonemalarning fonologik belgilari leksema tarkibida reallasha, sintaksemalar leksemalar birikuvi natijasida shakllanadi. Morfemalar esa bevosita leksemalarning shakllanishi yoki birikishi uchun xizmat qiladi.

Muhokama nutq tipining shakllanishida ham birinchi galda leksik birliklar muhim o'rin tutadi. Bunda leksik birlikning denotativ va konnotativ ma'nolari, ularning shakl va ma'no munosabatlari, birikish qobiliyatlari alohida ahamiyatga ega bo'ladi.

Bu o'rinda muhokama nutqining leksik-semantik belgilari borasida so'z yuritilar ekan, muhokama nutq tipida qo'llangan so'zlarning semantik strukturasi e'tibor qaratiladi, ya'ni bu nutq tipiga qanday so'zlar xoslangan bo'ladi: aniq ma'noli so'zlarmi, mavhum ma'noli so'zlarmi; emotsional bo'yoqdor so'zlarmi yoki emotsional bo'yoqsiz so'zlarmi; bir ma'noli so'zlarmi yoki ko'p ma'noli so'zlarmi, agar ko'p ma'noli so'zlar ishlatilsa, ularning qaysi ma'nosi ustuvorlik qiladi: o'z (bosh) ma'nosimi yoki ko'chgan ma'nosimi? Mazkur faslda ana shu muammolar borasida so'z yuritiladi.

So'zlarning shakl va ma'no munosabatiga ko'ra turlarining muhokama nutq tipidagi o'rni masalasi bahsli bo'lib, hali aniq yechimga ega emas. Sababi muhokama nutqi bo'yicha olib borilgan tadqiqotlarda, asosan, muhokama nutqining semantik tuzilishiga e'tibor qaratilgan. Undagi leksik birliklarning shakl va ma'no munosabatiga ko'ra turlaridagi lisoniy jarayonlar nutq tipining shakllanishida muhim ahamiyat kasb etmaydi, deb hisoblanadi. Buning sababi shundaki, muhokama nutqida predmet haqidagi fikr markaziy o'rinni egallaydi. Shu bois, unda antonim, sinonim, paronim, ko'p ma'noli so'zlarning fikr ifodalashdagi o'rni mavjud bo'lsa-da, ularning estetik vazifasi ikkinchi darajaga tushib qoladi.

"Yomonlikka yaxshilik bilan javob bersang, bir hissa savob olasan. Yaxshilikka yomonlik bilan javob bersang, o'n hissa gunohga botasan. Negaki, bu dunyoda yomonlikka yaxshilik qiladiganlardan ko'ra yaxshilikka yomonlik

¹⁷ Нечаева О.А. Функционально-смысловые типы речи. – Улан-Уда: Бурят. кн. изд-во, 1974. – С.75.

qiladiganlar o'n hissa ko'p" (O'tkir Hoshimov, "Daftar hoshiyasidagi bitiklar", 22-bet).

Ushbu muhokama matniga mansub bo'lgan parchada *yaxshilik* va *yomonlik* leksemalari o'zaro zid ma'nolilikni yuzaga chiqarmoqda. Yozuvchi dunyoda yaxshilikka yomonlik bilan javob qaytaradigan insonlar, yomonlikka yaxshilik bilan javob qaytaradigan insonlardan o'n barobar ko'pligini ta'kidlash bilan xulosalamoqda. Bu o'rinda ma'no zidligi hukm-xulosani bo'rttirishga xizmat qilmoqda.

Muhokama nutq tipida ko'chma ma'noli so'zlar ham qo'llanadi, biroq ko'chma ma'noli so'zlar rivoya va tasvir nutq tiplarida poetik detal vazifasini "bajarsa", muhokamada ma'no ko'chishi poetik detal emas, balki oddiy leksik birlik sifatida namoyon bo'ladi:

"Haqiqat degani ko'-o'-o'p yaxshi narsa. Ammo bir "kamchiligi" bor: hamisha ham shirin bo'lavermaydi. Achchiq haqiqat ko'-o'-o'p foydali narsa. Ammo uning ham bir "kamchiligi" bor: hammaga ham yoqavermaydi" (O'tkir Hoshimov, "Daftar hoshiyasidagi bitiklar", 29-bet).

Yuqoridagi matnda *achchiq*, *shirin*, *kamchilik* so'zlari matnning ta'sirchanligini oshirish uchun emas, balki muhokama nutqidagi qiyosni kuchaytirish uchun xizmat qilmoqda.

Xullas, muhokamaning leksik-semantik xususiyatlari to'g'risida so'z ketganda shuni aytish mumkinki, unda ma'nodosh, shakldosh so'zlar nutq tipining mohiyatidan kelib chiqib qo'llanadi. Biroq muhokamaning nutq tipi sifatida shakllanishida ularning alohida o'rni ko'zga tashlanmaydi. Chunki muhokamada qiyoslash, solishtirish, asoslash va shu asosida xulosa chiqarish yetakchilik qiladi. Shuning uchun muhokama mantiqiy (logik) tekst deb ham yuritiladi.

Ikkinchi bobning ikkinchi fasli *"Muhokama nutqining morfologik belgilari"* deb nomlandi.

"Morfologiyaning obyektini so'zning grammatik tomonidir. U so'zni tilning grammatik sistemasi nuqtayi nazaridan tekshiradi"¹⁸, so'zlarning morfologik xususiyatlarini o'rganadi. Shuningdek, u "so'zning strukturasi: so'z formalarini, ularning hosil bo'lish yo'llarini, so'zning nutqda o'zgarish qoidalarini belgilaydi, so'zning leksik-grammatik kategoriyalarini, so'z turkumlarini o'rgatadi"¹⁹. Bir so'z bilan aytganda, morfologiya so'z haqidagi grammatik ta'limotdir²⁰. Shunday ekan, muhokama nutqining morfologik xususiyatlari borasida so'z ketganda, uning morfologik qurilishi o'rganiladi. Chunki morfologik tahlil so'zlarning umumkategorial ma'nolariga ko'ra (so'z turkumlari nuqtayi nazaridan) turlarini, so'zning morfologik strukturasi, bu strukturadagi komponentlarning xususiyatlarini (tiplari, ma'no va vazifalarini) belgilash²¹ dir.

Nutqni shakllantiruvchi eng muhim xususiyat predikativlik hisoblanadi. Predikativlikning yuzaga chiqishida esa fe'l yetakchilik qiladi.

¹⁸ Ўзбек тили грамматикаси. Морфология. I том. – Тошкент: Фан, 1975. – В.58.

¹⁹ Ғуломов А.Ғ., Асқарова М.А. Ҳозирги замон ўзбек тили. Синтаксис. –Тошкент: Фан, 1961. – В.5.

²⁰ Ўзбек тили грамматикаси. Морфология. I том. – Тошкент: Фан, 1975. – В.58.

²¹ Ҳожиёв А. Лингвистик терминларнинг изоҳли луғати. –Тошкент: Ўқитувчи, 1985. – В.57.

Har qanday nutq tipining shakllanishida bo‘lgani kabi muhokama nutq tipining shakllanishida ham fe‘l so‘z turkumi o‘ziga xos o‘rin tutadi. Ayniqsa, bu o‘rinda fe‘lning ayrim ma‘noviy turlari muhokama nutqi uchun xoslanadi.

Muhokama nutq tipining shakllanishida, gapda predikativlikni ta‘minlash uchun muhim mavqega ega bo‘lgan so‘z turkumi sifatida fe‘l muhim o‘rin egallaydi. Fe‘lning o‘ziga xos xususiyati shundaki, u harakatni ifodalaydi. U rivoyat nutq turida harakat dinamikasini ta‘minlaydi. Voqealar rivojlanishi va syujet harakatlanishi uchun xizmat qiladi. Muhokama nutq tipida esa fe‘l semantikasida nutq turiga xos xususiyatlar kuzatiladi, ya‘ni fe‘llardan harakat dinamikasini ta‘minlash uchun emas, balki hukm va xulosalarning yuzaga kelishida foydalaniladi. Bunday holda fe‘ldagi faol harakat ma‘nosi “*xiralashadi*”. Muhokama nutq tipida faol harakatni ifodalovchi fe‘llardan ko‘ra fe‘l shakllari ko‘p qo‘llaniladi:

Bu odam dunyoga kelib nima ko‘rdiykin? Aqlini taniganidan buyon ishlagan, bola-chaqa qilgan, ularni boqaman deb, tinim bilmagan. Mana, endi ketdi. Hammasi tamom bo‘ldi. Hozirgina u bor edi. Endi yo‘q. Hammasi bir kiprik qoqqulik fursatda o‘tib ketdi. Tug‘ilishi-yu esini tanishi, quvonch-tashvishlari-yu o‘limi... Qiziq, odamning umri shuncha qisqa-yu, tipirchilashi olamni tutadi. Go‘yo olamga ustun bo‘ladigandek... (Ulug‘bek Hamdam, “Ota”, 63-bet)

Muhokama nutq tipida fe‘l so‘z turkumining qo‘llanilishi faol bo‘lsa ham, ularda harakat semasi ikkinchi planga tushadi, rivoya nutqida esa fe‘lning harakat semasi birinchi planga chiqadi va harakt dinamikasini ta‘minlashga xizmat qiladi.

Yuqoridagi matnda har bir fe‘lning semantik turlari ajratib chiqildi va ushbu matnda jami 17 ta (100%) fe‘l qatnashgan bo‘lib, undan semantik guruhlanishiga ko‘ra 9 tasini (60%) fe‘l shakllari – sifatdosh, harakat nomi, ravishdosh shakllari tashkil etadi. Qolganlari fe‘llarning ma‘noviy turlari, 4 ta (27%) holat fe‘llari, 1 ta (6.6%) aqliy faoliyat fe‘li va 1 ta (6.6%) nutqiy fe‘llaridir.

Muhokama nutq tipida fe‘lning funksional shakllari matnning shakllanishida alohida o‘rin tutmoqda. Chunki fe‘lning funksional shakllari aktiv harakatni ifodalamaydi, ammo predikativlikni yuzaga chiqarishda muhim o‘rin tutadi.

Muhokama nutq tipida fe‘lning semantik guruhlaridan tashqari, zamon kategoriyasi ham o‘ziga xos funksiyaga ega bo‘ladi.

Muhokama nutq tipidagi matnda barcha so‘z turkumlari ishtirok etadi. Biroq ularning qo‘llanish chastotasi va semantik strukturasi o‘ziga xoslik kuzatiladi. Jumladan, nutqning shakllanishida shaxs va predmet muhim ahamiyat kasb etadi. Muhokama matnining tuzilishidagi tezislarning yuzaga kelishida, dalillarni asoslashda, fikrlarni izchil bayon qilishda va umumiy xulosalarni berishda ot so‘z turkumining ham o‘ziga xos qo‘llanilishi ko‘zga tashlanadi:

Insonlarning qo‘lidagiga hasad qilmaydigan kishining ko‘ngli rohatda bo‘ladi. Hasad qalbni, axloqni o‘ldiradi. Odam tanasi turli sabablar bilan o‘ladi. Qalbni o‘ldiradigan illatlar ham turli-tuman. Shulardan biri, balki asosiysi hasaddir (Tohir Malik, “Odamiylik mulki”, 107-bet).


Muhokama nutq tipiga mansub ushbu matnda jami 15 ta (100%) ot so‘z turkumiga oid leksema qatnashgan. Shundan 5 ta (33.3%)ni aniq ma‘noli so‘zlar, 10 ta (66.6%) ni mavhum ma‘noli otlar tashkil qiladi.

Muhokama nutq tipida soʻz turkumlarining ishtirokini belgilashda yuqorida berilgan foiz koʻrsatkichlari har doim ham bir xil boʻlmaydi. Bu bevosita nutqning mavzusiga bogʻliq boʻladi. Nutqning shakllanishi, uning mavzusi, soʻzlovchining maqsad-niyati undagi soʻzlarning ishlatilish darajasini belgilaydi. Yuqoridagi misolda 66 % mavhum maʼnoli soʻzlar qoʻllanilgan. Buning sababi nutq tezisi hasad boʻlib, bu nom mavhum otga tegishli. Shuning uchun nutq tarkibida foydalanilgan soʻzlarning ham mavhum maʼnoga ega boʻlishi tabiiy.

Xulosa qilib shuni aytishimiz mumkinki, muhokama nutqida ot soʻz turkumining qoʻllanilishi muhokama mavzusi bilan bevosita bogʻliqdir. Muhokama mavzusiga qarab muallif fikrlarini isbotlash, dalillash, xulosalash uchun maʼlum bir soʻzlardan foydalanadi.

Muhokama nutqini morfologik jihatdan oʻrganish jarayonida soʻz turkumlarining qoʻllanilishi qay darajada ekanligini tadqiq etish muhimdir. Bu uslubiy jihatdan turli koʻrinishlarda namoyon boʻladi:

Bolalik – bu bebaho davr. Uni yoʻqotgan kishi qaytarib ololmaydi. Shuning uchun bolalar doim kulib yashashi kerak. Chunki dunyoda bolalarning kulgisidan-da begʻubor narsa yoʻq (Xudoyberdi Toʻxtaboyev, “Mungli koʻzlar”, 43-bet).



Matndagi mustaqil va yordamchi soʻz turkumlari statistik tahlil qilinganda, eng koʻp qoʻllanilgan soʻz turkumini ot (36%) tashkil etgan boʻlsa, qolgan soʻz turkumlari (feʼl (23%), sifat (9%), olmosh (14%), ravish (5%), yordamchi soʻz turkumi) ulushi (13%) u qadar katta boʻlmadi.

Xullas, muhokama nutq tipi rivoya va tasvir nutq tiplaridan soʻz qoʻllash chastotasi va soʻzlarning semantik tuzilishi jihatdan farq qiladi.

Bobning uchinchi fasli **“Muhokama nutqining sintaktik xususiyatlari”** deb nomlangan. Unda muhokama nutq tipining sintaktik xususiyatlari ochib berilgan.

Funksional-mazmuniy nutq tiplari tasvir, rivoya, muhokama nutq tipi kabi turlarga boʻlinar ekan, ularning har biri oʻziga xos sintaktik xususiyatlarga ega

bo'ladi, chunki nutqning shakllanishi so'zlovchining niyati, maqsadi, motiv asosida yuzaga chiqadi. Nutqning yuzaga kelishiga asos bo'lgan motiv uning shakliy-mazmuniy tuzilishiga, unda morfema va leksemalarning tanlanishiga, so'z birikmasi va gaplarning bog'lanish xususiyatlariga o'z ta'sirini o'tkazadi.

Muhokama nutq tipida ham gaplar grammatik jihatdan zanjirsimon bog'lanadi, ammo bunda semantik struktura rivoyadan keskin farq qiladi. Agar rivoyada voqebandlik zanjirli bog'lanish hosil qilib, birinchi voqea ikkinchi voqeaning yuzaga kelishiga asos bo'lsa, muhokama nutqida bir fikr ikkinchi fikrning yuzaga kelishini ta'minlaydi. Shuning uchun rivoya nutq tipida gaplarning tema-rematik jihatdan zanjirsimon bog'lanishi voqealar rivojini, harakat dinamikasini ta'minlaydi. Muhokama nutq tipida fikrlar rivojini ta'minlaydi. Rivoya nutqida syujetlilik yuzaga kelsa, muhokama nutqida syujet mavjud bo'lmagani uchun fikr dinamikasi asosiy o'ringa chiqadi:

So'z kuchli qudratga ega. Hayotiy faoliyatda so'zlar bilan ko'plab ishlarni ijobiy hal qilishimiz mumkin. Ayniqsa shirin so'z bilan. Shirin so'z bilan aytilgan har qanday talab bajarilmay qolmaydi. Chunki so'z jismoniy quvvatga qaraganda ancha kuchli va ishonarli hisoblanadi (Erkin Malik, "So'z va amal" 36-bet).

Ma'lumki, muhokama nutq tipida narsa, hodisa va jarayonlarning umumiy qonuniyatlari, ular haqidagi so'zlovchining fikri ifodalanadi. Shuning uchun muhokama nutq tipida voqebandlik mavjud bo'lmaydi. Muhokama nutqining monologik shaklda bo'lishi to'liqsiz gaplarning qo'llanishini cheklaydi. So'roq gaplardan ham kam foydalaniladi. So'roq gaplar qo'llanganda fikrni asoslash uchun dalillarni keltirish maqsadida qo'llanadi: *Atrofingizdagi kattalarga ziyrak boqing, ular qandaylar? Xushomaddan rohatlanadilarmi? U holda nafslariga itoatkor ekanlar. O'zlarini madh etishlarini istaydilarmi? Demak, nafslariga qul ekanlar. Pullari ko'pmi? Dunyo uchun, nafs uchun yashaydilar. Nafs uchun yashayotgan odam qanchalar badavlat bo'lmasin, aslida g'arib hisoblanadi* (Tohir Malik, "Vijdon uyg'onur" 76-bet).

